

**15-SON MHXS, "XARIDORLAR BILAN TUZILGAN SHARTNOMALAR  
BO'YICHA TUSHUM"**

*Qo'chqorov Marufjon Boxodir O'g'li*

*Toshkent Moliya Instituti*

*Buxgalteriya hisobi 2 kurs magistranti*

**Annotatsiya:** MHXSlariga o'tish jarayoni sinchkovlik bilan o'rganishniva buxgalteriya hisobi ob'ektlarini baholash bo'yicha metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu maqolada 15-son MHXS "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar"ga muvofiq operatsiya narxini bajarilishlarga oid majburiyatlarga taqsimlash masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tushum, operatsiya narxi, bajarilishlarga oid majburiyatlar, alohida sotishning bahosi, aktivlar ustidan nazorat.

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldaggi PQ- 4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Qarori [1]qabul qilindi. Shu bois, bugungi kunda eng muhim masalalardan biri bu MHXSlarini o'rganish va uni joriy qilish bo'lib hisoblanadi. MHXSlari xalqaro professional tashkilotlar tomonidan yaratilgan xalqaro hujjat bo'lib, dunyo bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil etishning prinsiplarini aks ettiradi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

15-son MHXSlarida[2] tushumni tan olishning beshta bosqichdan iborat modelini taklif etilgan: 1. Xaridorlar bilan shartnomalarni identifikatsiya qilish; 2. Shartnomalar bo'yicha bajarilishlarga oid majburiyatlarni identifikatsiya qilish; 3. Operatsiya narxini aniqlash; 4. Operatsiya narxini shartnoma bo'yicha bajarilishlarga oid majburiyatlar o'rtaida taqsimlash; 5. Kompaniya bajarilishlarga oid majburiyatni bajarganda tushumni tan olish.

Tushumni aniqlashning muhim bosqichlaridan biri "**operatsiya narxini shartnoma bo'yicha bajarilishlarga oid majburiyatlar o'rtaida taqsimlash**" deb ataladi. 15-son MHXSda operatsiya narxini bajarilishlarga oid majburiyatlarga taqsimlashda aniq uslubiy tartiblarni belgilab bergen, qaysiki unga muvofiq operatsiya narxi uning tarkibiga kiruvchi bajarilishlarning har biri alohida sotilgandagi qiymatiga mutonasib ravishda taqsimlanadi. S.Krapivensova[3] tushumlarni tan olish prinsiplari va ularni Rossiya schetlar rejasida qo'llash masalasini ko'rib chiqqan. M.Sukonkina[4] 15-son MHXSlariga muvofiq tushumni aniqlash qoidalarni qazib olish sanoatida qo'llash masalalarini tadqiq qilgan. Aleksandr Bugaev[5] qurilish tashkilotlarda

shartnomalar hisobi bo'yicha tushumlarni tan olish tartibini ko'rsatib bergan. I.A. Lavrovskaya[6] 15-son MHXSlarining qo'llanilishi moliyaviy sog'lomlashtirishning eng muhim omili sifatida qaraydi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

15-son MHXSga muvofiq xaridor aktiv ustidan nazoratni qo'lga olishining beshta mezonini ko'zda tutadi:

- kompaniyada to'lovga doir huquq amal qilishi yuzaga keladi;
- xaridorda mulk huquqi yuzaga keladi;
- xaridorda jismoniy egalik qilish huquqi yuzaga keladi. Biroq, jismoniy egalik qilish aktiv ustidan nazorat qilish bilan hamma vaqt ham mos kelavermaydi;
- xaridor aktivga mulk huquqi bilan bog'liq salmoqli risk va naflarga tortiladi;
- xaridor aktivni qabul qilib oladi.

**Davr davomida bajariladigan majburiyatlar.** Kompaniya tovar yoki xizmatlar ustidan nazoratni davr davomida olib boradi, bajarilishlarga oid majburiyatni bajaradi va davr davomida tushumni tan oladi, agarda quyidagi mezonlar bajarilsa:

(a) Xaridor bir vaqtning o'zida kompaniya faoliyati natijalaridan nafni uni kompaniya tomonidan amalga oshirishi borobarida qabul qilib oladi va bir vaqtning o'zida iste'mol qiladi (masalan, xizmat ko'rsatish, xususan operatsiyalarni qayta ishslash yoki xavfsizlikni ta'minlash);

(b) kompaniya faoliyatining natijalari aktivlarni yaratish va sifatini oshirishga olib keladi (masalan, tugallanmagan ishlab chiqarish), qaysiki bunda xaridor uni yaratish yoki sifatini oshirish borobarida uni nazorat qilib boradi. Yaratilayotgan aktiv moddiy yoki nomoddiy bo'lishi mumkin. Bunday kelishuvlarga qurilish yoki ishlab chiqarish bo'yicha shartnomalarni misol keltirish mumkin. Bunda xaridor tugallanmagan ishlab chiqarishni nazorat qiladi. Boshqa bir misol qilib natijalari to'liq xaridorga taalluqli bo'lgan tadqiqotlar o'tkazish yoki ishlanmalarni yaratish bo'yicha shartnomalarni ham kiritish mumkin.

15-son MHXSning 39-bandiga muvofiq "tashkilot davr davomida bajariladigan har bir bajarilishlarga oid majburiyatlar bo'yicha davr davomidagi tushumni bajarilishlarga oid majburiyatlarning bajarilish to'liqligi darajasini baholash asnosida tan olishlari lozim".

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Tadqiqot natijalaridan shunday xulosa qilish mumkin mamalakatimizda tashkilotlar jadal sur'atlar bilan MHXSlariga o'tmoqda. Shu bois, daromadlarni tan olish: operatsiya narxini bajarilishlarga oid majburiyatlarga taqsimlash 15-son MHXS "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar" standarti asosida milliy hisob tizimiga joriy etish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Birinchidan, eng muhim konseptual standartlardan biri bu 15-son MHXS "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar" standarti hisoblanadi. Ushbu

standart beshta bosqichdan iborat bo‘lgan modelni joriy qilgan. Mazkur modelning 3 va 4-bosqichlari mos ravishda “Operatsiya narxini shartnomaga bo‘yicha bajarilishlarga oid majburiyatlar o‘rtasida taqsimlash” va “Kompaniya bajarilishlarga oid majburiyatlarni bajarganda tushumni tan olishi” deb ataladi. Bugungi kunda korxonaning hisob siyosatiga har bir bosqichda amalga oshiriladigan uslubiy tartib qoidalarni kiritish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ishda amaliy misollar yordamida operatsiya narxini bajarilishlarga oid majburiyatlarning har biri alohida sotilgandagi qiymatidagi hissasiga nisbatan chegirma summasini taqsimlash asosida aniqlash hisob-kitoblari amalga oshirilgan. Ushbu ko‘rsatib o‘tilgan hisob-kitoblar asosida operatsiya narxini 15-son MHXS “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushumlar” standartiga muvofiq to‘g‘ri aniqlash imkoniyatini beradi.

Umumiyl xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda korxonaning hisob siyosatiga har bir bosqichda amalga oshiriladigan uslubiy tartib qoidalarni kiritish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz prezidentining 4611- son Қарори “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha natijalarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” giasosan MHXS o‘tishni jaddallashtirish vazifalari qo‘yilgan, bu esa o‘z navbatida yuqorida tadqiqotlar natijasida taklif etilgan operatsiya narxini bajarilishlarga oid majburiyatlarning 15-son MHXS “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushumlar” standartiga muvofiq har biri alohida sotilgandagi qiymatidagi hissasiga nisbatan chegirma summasini taqsimlash asosida aniqlash hisob-kitoblari operatsiya narxini to‘g‘ri aniqlash imkoniyatini beradi.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. 24.02.2020 йилдаги ПК-4611-сон “Молиявий хисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори
2. 15-сон МХХС «Харидорлар билан шартномалар бўйича тушумлар» стандарти 15-МСФО. [хттпс://финотчет.ру/артислес/102/](http://финотчет.ру/артислес/102/)
3. .Крапивенсова. МСФО (ИФРС) 15 «Выручка по договорам с покупателями» [хттпс://делпроф.ру/пресс-центр/эксперты-публикации/мсфо-ифрс-15-выручка-по-договорам-с-покупателями/](http://делпроф.ру/пресс-центр/эксперты-публикации/мсфо-ифрс-15-выручка-по-договорам-с-покупателями/)
4. МСФО на практике: МСФО (ИФРС) 15 в добывающей отрасли [хттпс://www.бдо.ру/инсигхтс/ифрс-он-практике/мсфо-15-металс-мининг/](http://www.бдо.ру/инсигхтс/ифрс-он-практике/мсфо-15-металс-мининг/)
5. Александр Бугаев.Практическое применение положений МСФО 15 «Выручка по договорам с покупателями» при учете строительных контрактов